



## BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING IJRO MAHORATINI O'STIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI.

**Ibragimova Nilufar Adxamovna.,**

*GulDu katta o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ma'lumki, mamlakatimizda barcha tarmoqlar qatori madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilib, bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zarur omili hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqil ta'lim, mashq, cholg'u ijrochiligi, sozanda, musiqa asarlari.*

Aynan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan respublikamizda milliy musiqiy ta'limni isloh qilish maqsadida musiqa sohasida qator qarorlarning qabul qilinishi ta'lim to'g'risidagi islohotlarning asosiy strategiyasini ko'rsatib berdi. Bu esa respublikamizda zamonaviy ta'lim raqobatbardoshligini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishda samaradorlikka erishish yo'lida qo'yilayotgan ishonchli qadam bo'ldi, deb bemalol aytish mumkin.

Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: "Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim" degan edilar Prezidentimiz Sh.M,Mirziyoev.

Insonlarni nafaot olamiga olib kiruvchi musiqa san'ati ko'p qirraligi bilan ajralib turadi. San'at sohasida faoliyat yuritayotgan har bir insondan ijodkorlik, bunyodkorlik, kasbiy fidoyilik kabi fazilatlar doimiy ravishda talab etiladi. Buning uchun san'at olamiga o'z hissasini qo'shishni istagan har bir san'atkor o'z ijro mahoratlarini o'stirishda mustaqil ta'limni to'g'ri yo'lga qo'ya bilishi lozim.

Kompozitor va o'z davrining etuk sozandasi, mashhur pianinochi S.Raxmaninov " Bir kun chalmasam, o'zim bilaman, ikki kun chalmasam, do'stlarim biladi, uch kun chalmasam tinglovchilar biladi", - deganida mashq qilish, shug'ullanishning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotlagan edi. Ma'lumki, musiqiy pedagogikaning cholg'u ijrochiligi yo'nalishida gamma, uchtovushlik va mashqlar o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Ularni o'rganish va chalish o'quv davrining hamma bosqichlarida ham muhim ahamiyatga ega. Undan turli bosqichlarda, turli maqsadlarda foydalaniladi.

Doimiy ravishda o'z ustida ishlamaydigan sozandaning ijrochilik faoliyati tez tugab qolishi mumkin. Chunki bu faoliyat – ijodiy faoliyat. Ijodiy faoliyat esa doimiy izlanishni, ijrochilik mahorati ustida muntazam shug'ullanishni talab qiladi. Shuning uchun o'z – o'zidan, nafaqat o'quv jarayonida, balki mustaqil shug'ullanish jarayonida



cholg'uchilik kasbiy sifatlari shakllanib boraveradi. Talaba o'zi mustaqil shug'ullanish jarayonida avval gamma, mashq va uchtovushliklarni ijro texnikasini oshirish maqsadi: doimo, uzluksiz ravishda, har kuni mustaqil cholg'u asbobida chalishi lozim. Bu jarayon har bir sozandaning ijro mahoratini oshiradi. So'ngra har bir musiqa asarlarini qism-qismlarga bo'lib, mustaqil o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida har qanday mashq yoki gamma aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aks holda talaba va o'quvchi qancha ko'p shug'ullanmasin kerakli natijaga erisha olmaydi. Tajribada bunday hollar ko'p uchraydi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchi yoki talabaga maqsadni aniq tushuntira bilishi kerak. Ayrim o'qituvchilar o'quvchi yoki talabalar bilan ishlashda ko'pincha faqat asar ustida ishlab yoki aynan o'sha asarning qiyin bo'lgan qismini qayta-qayta chaldiradilar, lekin kutilgan natijaga erisha olmaydilar. Bunday paytda albatta kamchiliklar sababini aniqlash kerak. Kamchiliklarni bartaraf qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan mashq va gammalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Cholg'u asbobida chalishni o'rgatish jarayonida talabalarda mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

1. Mustaqillikning yo'naltiruvchi omili sifatida musiqiy-eshitish tasavvurlari bilan ishlash.
2. Eshitish diqqatini va o'zini o'zi nazorat qilishni tarbiyalash.
3. Mustaqil ishlashdagi ongliklik, mantiqiylik va emotsionallikning o'zaro ta'siri.
4. Tahlil va umumlashtirish usulidan foydalanish.
5. San'atga ijodiy munosabatni tarbiyalash. Ijro jarayonida faollik.
6. Mustaqil ish ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lishi va u faqat vazifalarini bajarishdan iborat bo'lib qolmasligi kerak.

Musiqa asarini mustaqil o'rganayotgan talaba albatta, o'z-o'zini nazorat qilib borishi kerak. O'z-o'zini ongli ravishda qilingan nazorat orqali amalga oshirayotgan ishlarini tahlil qiladi va umumlashtirib boradi. Musiqiy san'atga bo'lgan ongli munosabat talabada ijodiy munosabatni tarbiyalaydi.

Talabalarda dars jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llay olishini shakllantirish - mustaqil ta'limning asosiy omili hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Abdullaeva, Q. Ibragimova "Pedagogika nazariyasi" T., "Talqin" 2008.
2. D. Karimova "Musiqiy pedagogik mahorat asoslari" T., "Iqtisod-moliya" 2008.
3. O.F.Nazarov "Qashqar rubobida o'qitish uslubi" T., 2008.